

KASB-HUNAR VA HALOL RIZQ TOPISH ODOBLARI**Rajabov Nodirbek***Toshkent Axborot Texnologiyalari**Universiteti Samarqand filiali**KI24-02 guruh talabasi.**Ilmiy rahbar: Samatov. X.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson hayotida kasb-hunar o’rni va uning jamiyatdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Halol mehnat orqali topilgan rizqning fazilati, islomiy manbalardagi ko’rsatmalar, Payg’ambarimiz (s.a.v) hayotlaridan misollar keltirilgan. Maqolada halol rizq topish madaniyati, odobi, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas’ uliyat masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlar orasida hunar o’rganishga bo’lgan e’ tiborni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Kasb-hunar, halol rizq, mehnat odobi, islom, hunar o’rganish, ijtimoiy mas’ uliyat, yoshlarga targ’ib.

Insoniyat tarixida mehnat va halol rizq topish doimo asosiy qadriyatlar qatorida bo’lgan. Har bir din, xususan, islom dini mehnatsevarlik, hunar egallash va halol yo’l bilan rizq topishni targ’ib etadi. Odam (a.s) yaratilganidan boshlab, inson o’z hayotini mehnat bilan obod qilishga da’vat etilgan. Shunday ekan, har bir musulmon kasb-hunar egallash, haromdan tiyilish va halol rizq topishga intilishi lozim.

Qadimdan ota-bobolarimiz farzand tarbiyasiga katta e’tibor qaratib, ularni, jinsidan qat’i nazar, hunar va kasb egasi bo’lishiga intilganlar. Ular bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tarbiyalashgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bolada mehnatga bo’lgan munosabat, avvalo, oilada shakllanadi. Insonning voyaga yetishi, shaxs sifatida kamol topishi va umuman, hayotda o’z o’rnini topishi mehnatsiz mumkin emas. Insoniyat yaraganidan beri mehnat bilan shug’ullanib kelgan. Avval faqat tirikchilik uchun amalga oshirilgan mehnat, vaqt o’tishi bilan kengroq maqsadlarga, foyda keltirishga, jamiyatga xizmat qilishdek sharaflı ishga aylangan. Bugungi kunda ham bu mavzu o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Buxorolik olim Burhoniddin Mahmud ibn Sadr ush-Shar’iy yozgan Muhit asarida keng yoritilgan. Quyida shu kitobda zikr etilgan ayrim mulohazalarga to’xtalamiz.

Imom Muhammad rahmatullohi alayh Kasb nomli asarini Abdulloh ibn Mas’ ud roziyallohu anhudagi rivoyat bilan boshlaydi. Unga ko’ra, Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: Qandayki ilm talab qilish har bir musulmon uchun farz bo’lsa, halol rizq ortidan yurish ham farzdir. Alloh taolo bandalari zimmasiga bir qancha farz amallarni yuklagan. Bu amallarni ado etish esa, o’z navbatida, kasb bilan

chambarchas bog'liq. Shunday ekan, kasb-hunar egallash tahorat kabi zaruriyatga aylanadi.

Buni tushunish uchun quyidagi jihatlarni ko'rib chiqamiz: farzlarni ado qilish uchun avvalo insonning salomatligi va kuch-quvvati zarur. Bu quvvat esa oziq-ovqatsiz bo'lmaydi. Oziq-ovqat topish uchun esa albatta mehnat qilish, ya'ni kasb qilish kerak bo'ladi. Xuddi shuningdek, tahorat qilish uchun idish kerak, bu idishni topish ham kasb evaziga mumkin. Namoz uchun avratni yopish shart, buning uchun esa kiyim zarur, kiyim esa faqat kasb orqali olinadi.

Demak, kasb insonni farz amallarga tayyorlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib, mo'min uchun zarur bo'lgan burchdir.

Shuningdek, Alloh taolo O'zining muqaddas Kalomida bandalarni halol rizq izlashga, ya'ni tijorat va kasb-hunar bilan shug'ullanishga undagan. Jum'a surasining 10-oyatida shunday marhamat qilinadi: Namoz ado qilingach, yer yuziga tarqalinglar va Allohning fazlidan (rizqidan) izlanglar. Bu oyatdan anglashiladiki, halol mehnat qilish, tirikchilik uchun kasb bilan shug'ullanish bevosita Qur'oni karimda tavsiya etilgan bo'lib, bu amr Allohning roziligi sari eltuvchi yo'ldir.

Kasb-hunar bilan shug'ullanish nafaqat tirikchilik vositasi, balki barcha payg'ambarlarning hayotiy amaliyotida ham muhim o'rinn tutgan. Bu esa kasbni nafaqat dunyoviy zarurat, balki diniy va axloqiy burch sifatida ham ko'rishga undaydi. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: Bo'zchilikni lozim tutinglar, zero, otangiz Ibrohim alayhissalom bo'zchi edilar, deb marhamat qilganlar. Bu hadis kasbning qadimdan payg'ambarlar hayotida qanday ahamiyat kasb etganini yaqqol namoyon etadi.

Yer yuzida eng avval kasb qilgan zot Odam alayhissalom bo'lib, u kishiga Jabroil alayhissalom tomonidan bug'doy keltirilib, uni ekish, parvarishlash, o'rib, yanchib, undan non tayyorlash amallari o'rgatilgan. Bu esa kasb-hunarni insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liqligini isbotlaydi. Nuh alayhissalom duradgorlik bilan, Idris alayhissalom tikuvchilik bilan, Dovud alayhissalom temirchilik bilan, Sulaymon alayhissalom savat to'qish bilan, Zakariyyo alayhissalom esa duradgorlik bilan tirikchilik qilganlar. Iso alayhissalom esa onalari to'qigan kiyimlarni sotib yoki daladan boshoq terib, kun kechirganlar.

Bu misollar shundan dalolat beradiki, har bir inson hayotda o'z ehtiyojlarini halol mehnat bilan qondirishi kerak. Hatto payg'ambarlar kabi ulug' zotlar ham kasb bilan mashg'ul bo'lgan ekan, demak biz ham bu yo'ldan borishimiz lozim. Alloh taolo An'om surasining 90-oyatida marhamat qiladi: Ular (payg'ambarlar)ning yo'llariga ergashing. Bu esa kasb-hunarning naqadar muqaddas va ilohiy yo'l ekanini tasdiqlaydi.

Islom fiqhida ham kasbning darajalari ko'rsatilgan. Eng avvalo, har bir kishi o'zining kunlik ehtiyojlarini hal qilish uchun mehnat qilishi farzdir. Agar uning zimmasida oila, turmush o'rtog'i, voyaga yetmagan farzandlari bo'lsa, u holda ularning

nafakasini ta' minlash ham uning burchiga kiradi. Xotin, bola-chaqa, hattoki kambag'al ota-onaning ro'zg'orini yuritish ham insonning zimmasidagi mas' uliyatlardan sanaladi.

Agar inson o'ziga va unga qarashli yaqinlariga kifoya qiladigan darajada rizq topib, undan ortig'ini jamg'arishni yoki boshqa to'g'ri yo'llarda ishlatishni niyat qilsa, bu ham joizdir. Faqat bu ortiqcha kasb-fayzga faxr, riyo, kibr aralashmasligi kerak.

Ya' ni, kasb-hunar bilan halol rizq topish nafaqat dunyoviy zarurat, balki diniy burch, payg'ambarlar sunnatidir. Bandaning o'z va yaqinlari uchun halol rizq izlashi Alloh roziligini topishga xizmat qiladi.

Kasb-hunar egallash nafaqat iqtisodiy mustaqillik, balki insonning jamiyatdagi mavqeい, o'ziga bo'lган ishonchini oshiradi. Hunarli inson hech qachon xor bo'lmaydi. Rasululloh (s.a.v) aytganlar:

“Hech kim o'z qo'li bilan topganidan ko'ra yaxshiroq taom yemas. Allohning payg'ambari Dovud (a.s) ham o'z qo'llari bilan mehnat qilib rizq topardilar.” (Buxoriy)

Halol mehnat bilan topilgan rizq Allohning rizoligiga olib boradi. Qur'oni karimda aytildi:

“Ey mo'minlar, sizlarga rizq qilib berganimizning halol va poklaridan yenglar...” (Baqara surasi, 172-oyat)

Halol rizq inson qalbiga sokinlik, jamiyatga esa baraka olib keladi. Harom yo'l bilan topilgan mol esa insonni ijtimoiy, ruhiy va diniy halokatga olib boradi.

Halol mehnat qiluvchi inson quyidagi odoblarga amal qilishi lozim:

- Halollik: Har qanday yolg'on, firibgarlikdan yiroq bo'lish.
- Adolat: Ishdagi sheriklar, mijozlar bilan adolatli muomala.
- Mas' uliyat: O'z kasbini puxta o'rganib, unga vijdonan yondashish.
- Qanoat: Mehnat evaziga topgan narsaga shukr qilish.
- Tavakkul: Harakatni qilish, natijani Alloha topshirish.

Shuni ham aytish joizki, bir kishi tushida buyuk zot Abdulloh ibn Muborak rahmatullohi alayhni ko'radi. Tushida undan so'raydi: Alloh taolo Sizga qanday muomala qildi? U zot shunday javob beradi: Robbim menga mag'firat qildi, o'zining yuksak fazli ila menga marhamat ko'rsatdi. Ammo shunga qaramay, uydagimning ro'parasida yashagan temirchiga berilgan darajaga erisha olmadim.

Bu tushdan ta'sirlangan kishi uyg'ongach, o'ylab qoladi: qanday qilib oddiy bir temirchi bunday oliy maqomga loyiq bo'lgan? U holni aniqlash uchun surishtiradi va temirchining xonadonini topadi. Temirchining bevasi bilan suhbatlashib, unga tushidagi voqeani hikoya qiladi va so'raydi: Eringiz qanday fazilatli ishlarni qilgan edilar?

Ayol unga shunday deydi: “Erim oddiy temirchi edi. Kun bo'yi mehnat qilib, oilamiz uchun rizq topardi. Kechasi esa charchaganidan uxbab qolardi. Ammo qalbida

solih bandalar kabi tahajjud o'qish istagi bor edi. Ko'pincha Abdulloh ibn Muborakning kechki ibodatlarini eslab: "Agar moliyaviv imkoniyatimiz bo'lsa, men ham tunlari ibodat qilardim", derdi. Ish vaqtida azonni eshitguday bo'lsa, agar qo'lida bolg'a ko'tarilgan bo'lsa ham, uni urmasdan qo'yay, so'ng: "Azon yangragaganidan keyin bu bolg'ani ishlatish menga to'g'ri kelmaydi, deb barcha ishini tashlab, darhol masjidga yo'l olardi.

Bu temirchi haromdan yiroq bo'lib, halol mehnat bilan rizq izlar edi. U nafaqat rizq topardi, balki Allohning buyruqlariga bo'ysunib, o'zini ibodatga ham bag'ishlardi. Dunyoviy majburiyat bilan ilohiy chaqiriq to'qnash kelganda, u doimo Allohning amrini ustun qo'yay edi. Shuning uchun ham u oddiy kasb egasi bo'lishiga qaramay, Alloh taolo huzurida yuksak darajaga erishdi.

Bu rivoyat Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhuning so'zlarini eslatadi: Men dunyo ishlari bilan ham, oxirat ishlari bilan ham mashg'ul bo'limgan bo'sh bekorchilarni yoqtirmayman, deb aytganlar. Chunki haqiqiy musulmon uchun dunyo ishlari ham oxirat bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Rizq bu Alloh taoloning bergen ne'mati bo'lib, uni faqat halol yo'l bilan izlash lozim. Harom yo'llar bilan rizq topishga urinish esa katta gunohdir. Alloh taolo bu borada Baqara surasining 172-oyatida shunday deydi:

Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergen pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz! (Baqara, 172).

Bu oyat halol rizq tanlash va Allohga shukr qilishning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Temirchining holati esa bizga amalda buni isbotlab beradi: niyat pokligi, halollik, ibodatga bo'lgan ixlos orqali oddiy inson ham Allohning huzurida ulug' maqomlarga erisha oladi.

Dinimizda har bir insonning o'z mehnati bilan yashashi, boshqalarga qaram bo'lmasdan, halol rizq topishi targ'ib etiladi. Kuch-quvvati yetarli bo'lgan kishining ish qilish o'rniga tilanchilik bilan shug'ullanishi diniy jihatdan man qilingan. Ayniqsa, sog'lom, mehnatga layoqatli erkak va ayollarining ko'chalarda tilanchilik qilishi nafaqat Islomiy qarashlarga, balki milliy an'analarimizga ham zid hisoblanadi. Ulamolarimizning ta'kidlashicha, bir kunlik taom topishga qodir odamning sadaqa so'rashi harom sanaladi. Hanafiy fiqhida esa mehnat qilishga imkoniyati bo'lgan kishiga sadaqa berish joiz emasligi aytilgan. So'fi Olloyor ham Sabotul ojizin asarida bu holatni shunday tasvirlaydi: Kimda to'kinlik bo'lsa, tilanchilik qilish haromdir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) esa: Beruvchi qo'l oluvchidan yaxshiroqdir, deb marhamat qilganlar. Atoqli ajdodlarimiz ilm olishga, kasb-hunar egallashga katta ahamiyat bergen, bilimli va mehnatkash insonlarni hurmat qilganlar. Bugungi kunda yurtimizda ham yoshlarga kasb o'rgatish, ularni mehnatga yo'naltirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Usta-shogird tizimi asosida yoshlarning hunarga bo'lgan qiziqishi qo'llab-quvvatlanayotgani e' tiborga loyiqidir.

Bundan tashqari, Umar ibn Xattob roziyallohu anhu bir kuni ish bilan shug'ullanmayotgan kishilarni ko'rib, ulardan sababi haqida so'raganlar. Ular esa: "Biz Allohga tavakkul qilamiz, – deb javob bergenlar. Shunda Umar roziyallohu anhu: "Bu tavakkul emas. Chin tavakkul qilgan inson avval urug'ni yerga qadab, keyin Allohga ishongan kishi bo'ladi. Hech kim "Ey Alloh, rizq ber' deb, o'zi harakat qilmasdan o'tirib qolmasin. Osmondan na tilla, na kumush yog'iladi, deganlar.

Shuningdek, ular sadaqalarga suyanib, mehnat qilmaydigan kambag'allarga qarata: "Ey faqirlar, savobli ishlar uchun musobaqalashinglar, musulmon jamiyatiga yuk bo'lib qolmanglar, deb nasihat qilganlar. Said ibn Mansur Ibn Mas'uddan keltirgan rivoyatda u zot shunday deydi: Men hech qanday foydali ish bilan mashg'ul bo'lmaydigan kishilarga qarashni yoqtirmayman

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu yana shunday deganlar: Bir kishini ko'rib unga mehrim tushadi, lekin so'ngra undan biror hunaring bormi deb so'rayman. Agar "yo'q" desa, u kishiga bo'lgan nazarim o'zgaradi.

Bu rivoyatlardan anglashiladiki, Islom dini har bir insonni kasb-hunar egallab, jamiyatga foyda keltiradigan ish bilan shug'ullanishga targ'ib qiladi. Bekorchilik esa tanqid qilinadi. Ilm olish va kasb o'rganish dinimizda faqat tavsiya emas, balki muhim vazifa sanaladi.

Shu sababli ota-onalar farzandlarining qobiliyat va moyilligini hisobga olgan holda, ularni yoshlikdan boshlab ilm olish va hunar egallahsga yo'naltirishlari, zarur shart-sharoitlarni yaratishlari muhimdir.

Yosh avlodni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, o'z kasbining mohir egasi bo'lishga ruhlantirish kerak. Bu ularning diniy burchi bo'lishi bilan birga, jamiyat va vatan oldidagi mas'uliyatlaridir. Shunday bo'lsa, ular ilm, kasb-hunar, ko'nikma va malakalari bilan xorijga chiqib aldanmasdan, balki o'z yurti taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, Vatan oldidagi mas'uliyatini his etadigan, porloq kelajakni barpo etadigan yetuk shaxslar sifatida voyaga yetadilar.

Yurtimizda va umuman insoniyat tarixida eng buyuk ibrat manbai bo'lган payg'ambarlar ham, faqat ilohiy risolalarni yetkazish bilangina cheklanib qolmaganlar. Ular o'zlarining halol mehnatlari, hunar va kasblari orqali ham o'z ummatlariga namuna bo'lishgan. Masalan, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) savdogar bo'lган bo'lsalar, boshqa payg'ambarlar orasida chorvachilik, dehqonchilik, temirchilik yoki duradgorlik bilan shug'ullanganlari ham bo'lган. Bu esa islam dinining halol mehnat va o'z mehnati bilan rizq topishni naqadar ulug'lashini yaqqol ko'rsatadi.

Rizq izlash yo'lida inson turli sinovlarga duch keladi. Ba'zida ko'proq daromad topish istagi uni nojo'ya, harom yo'llarga boshlashi, boshqalarning haq-huquqiga tajovuz qilishga undashi mumkin. Biroq dinimizda bunday yo'llar qat'iyan man etilgan. Harom yo'llar bilan boylik orttirganlar qisqa muddatda natijaga erishgan bo'lishi mumkin, lekin ularning qalbi halovatdan mosuvo bo'ladi va oxiratda og'ir

azobga duch keladilar. Aksincha, halol mehnat qilgan odamning rizqi barakali bo'ladi, u xotirjam hayot kechiradi. Homid Lifofiy shunday deydi: To'rt narsani noto'g'ri joydan izladik, lekin ularni to'g'ri manbadan topdik: boylikni mol-dunyoda emas, qanoatda; rohatni mo'l-ko'lchilikda emas, ozgina molda; lazzatni ne'matda emas, salomatlikda; rizqni yerda emas, osmondan topdik.

Shu bois, har bir musulmon o'z hayotida kasb-hunar egallab, jamiyatga foydali bo'lishga, oilasini halol rizq bilan ta'minlashga intilishi lozim. Bu nafaqat moddiy, balki ma'naviy yetuklikka ham olib boradigan muhim qadriyatlardan biridir.

Bugungi kunda yoshlarga hunar o'rgatish orqali ularning hayotda mustaqil, ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishlari ta' minlanadi. Hunarsiz inson boshqalarga tobe, ijtimoiy himoyasiz bo'lib qoladi. Shu sabab, oila, maktab va jamiyat yoshlarni hunarga jalb etishi zarur.¹

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar egallah va halol yo'l bilan rizq topish bu faqat moddiy emas, balki ma'naviy boylikdir. Har bir musulmon o'z hayotida halollikni bosh mezon qilishi, o'ziga va boshqalarga foya keltiruvchi kasb bilan shug'ullanishi kerak. Shundagina jamiyatimizda baraka, tinchlik va farovonlik qaror topadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Imom Buxoriy, Sahihul Buxoriy hadis to'plami.
2. Abdulloh Domla, Halollik musulmon ziynati. Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.
3. Al-Gazali, Ihyo Ulumiddin (Din ilmlarini jonlantirish). Toshkent: Adabiyot, 2015.
4. Ibn Taymiyya, Majmu' al-Fatawa (Fatvolar to'plami). Riyod: Dar al-Islam, 2013.
5. Muhammad Ali, Islomda mehnat va halollik. Toshkent: Ilm-zoyo, 2017.
6. Shamsuddin F. Shams, Kasb-hunar o'rgatish va yoshlarni mehnatga tayyorlash (Teoriyaviy va amaliy aspektlar). Tashkent: Tajribalar nashri, 2016.

¹ Shamsuddin F. Shams, Kasb-hunar o'rgatish va yoshlarni mehnatga tayyorlash (Teoriyaviy va amaliy aspektlar). Tashkent: Tajribalar nashri, 2016.